

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Т.Жураев, А.Саъдуллаев, Г.Худойберганов, Х.Мансуров, А.Ворисов Олий математика асослари, Т. Узбекистон, 1995. 279 бет
2. Д.В.Беклемишев Курс аналитической геометрии и линейной алгебры М.: Наука, 1974. 320 с.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYA BERISHDA “FAN VA TABIAT” RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ALGORITM XARITASI

**Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, PhD**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishga “Fan va tabiat” rivojlantiruvchi markazida faoliyatini tashkil etishda foydalanish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalari, metodlar, usullar jamlagan algoritm xaritasi ishlab chiqilgan va yoritilgan

Kalit so`zlar: Maktabgacha yosh, atrof muhit, ekologoya, ta’lim - tarbiya algoritm xaritasi, metod, usullar.

ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ «НАУКА И ПРИРОДА» ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ КАРТА АЛГОРИТМА

Аннотация: В данной статье разработана и выделена карта-алгоритм современных образовательных технологий, методов и методов для использования при организации деятельности в центре развития «Наука и природа» по экологическому воспитанию детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, окружающая среда, экология, образование - карта алгоритма обучения, методика, методы

ORGANIZING THE DEVELOPMENTAL EDUCATIONAL ACTIVITY "SCIENCE AND NATURE" FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN ALGORITHM MAP

Annotation: In this article, an algorithm map of modern educational technologies, methods, and methods was developed and highlighted for use in the organization of activities in the development center "Science and Nature" for environmental education of preschool children

Keys words: Preschool age, environment, ecology, education - education algorithm map, method, methods

Jahonda tobora global ahamiyat kasb etib borayotgan ekologik muammolarning mayjudligi va bu mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalariga o’z ta’sirini o’tkazayotganligi ekologiya borasida jiddiy ishlar olib borishni taqozo etadi. So’nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi, ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ma’rifat masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Respublikamizda ekologik muammolarning oldini olishni mактабгача та’лим ташкilotlaridan boshlash va tarbiyalanuvchilarda ilk ekologik bilimlarni tarkib toptirish alohida e’tiborni talab etilmoqda.

Hozirgi vaqtida maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifa intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy shaxsni kamol toptirish hamda bola shaxsini har tomonlama shakllantirishdan iborat. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartining asosi bo’lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat o’quv dasturida maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o’quv-tarbiyaviy faoliyatining asosiy g’oyalari, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o’tishidagi asosiy kompetensiyalar belgilab berilgan. Dasturda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ekologik ta’lim-tarbiya berish va ularda atrof-olamga bo’lgan axloqiy munosabati tarkib toptirish talab etiladi. Ushbu talabni amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik bilimlarni tizimli ravishda olib borishni taqozo etadi.

Murg’ak qalblarning tabiatga bo’lgan ongli munosabati, tabiatni sevishga bo’lgan tushunchasi ekologik munosabat tushunchasi bilan uyg’undir. Ekologik munosabat – bu tabiatni muhofaza qilish, uni sog’lomlashtirish, yaxshilash va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish hamda kishilarning harakat yoki harakatsizliklarini belgilovchi ijtimoiy munosabat, deya baholaydi M. Umarova o’z tadqiqot ishida [4].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga beriladigan ilk ekologik tarbiyani amalga oshirishda bolaning yoshi, saviyasiga mos va xos ish shakllari, vositalari va metodlarini tanlab olish juda muhimdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda shakllantiriladigan ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi bo’lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

- bolalarga ta’lim faoliyatidan tashqari jarayonda ekologik tushunchalarni tarkib toptirish;
- ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to’g’risidagi tasavvurini boyitish;
- bolalarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to’g’risidagi mas’uliyatni shakllantirish.
- bolalarda tabiatda o’zini tutish malakasini, atrof-muhitni muhofaza qilish tuyg’usini tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash jarayonida faol ishtiroy etishlariga erishish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga beriladigan ilk ekologik tarbiyani amalga oshirishda bolaning yoshi, saviyasiga mos va xos ish shakllari, vositalari va metodlarini tanlab olish juda muhimdir.

Ta’limda ko’rsatmalilik tamoyili o’quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita tarbiyalanuvchilarning idrok qilishlarini ta’minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zotan ko’rsatib, anglatib, analiz va sintez qilib, amaliy sur’atda ishlatib berilgan bilim, malaka va ko’nikmalar tarbiyalanuvchilar ongiga tezroq singadi, xotirasida uzoq saqlanadi. Ko’rsatib o’qitish orqali tarbiyachi ta’lim faoliyatni jarayonida bolalarga nazariy va amaliy ma’lumot beradi va tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi.

O’rta, katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyalanuvchilarga “Fan va tabiat” ta’lim faoliyatida ekologik ta’lim-tarbiya berish mazmuni hamda uning mohiyatini bolalarga yetkazishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning boshlang’ich darajasi aniqlandik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ekologik tarbiya berish jarayoni aniqlovchi bosqichda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to’g’risida”gi qarorini va uning ilovalarida aks etgan o’quv-tarbiyaviy jarayon mazmuni hamda ekologik ta’lim-tarbiya berishga yo’naltirilgan mavzularni o’rganish asnosida tahlil qilindi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Fan va tabiat” markazida tarbiyalanuvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya berish va ularda ekologik bilim, ekologik madaniyat ko’nikmalarini tarkib toptirish asosiy vazifamiz bo’lganligi sabab, biz tomonimizdan “Fan va tabiat” markazida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning algoritm xaritasini quyidagi tartibda ishlab chiqdik (1-jadvalga qarang):

Ekologik ta’lim-tarbiya berishga mo’ljallangan “Fan va tabiat” rivojlantiruvchi ta’lim faoliyatini tashkil etishning algoritm xaritasi

“Fan va tabiat” markazi rivojlanti-ruvchi ta’lim faoliyat bosqichlari	Zamonaviy ta’lim texnologiyalari	Usullar	Metodlar
Avvalgi bilimlarni faollashtirish texnologiyalari	O’yin texnologiyalari	O’yinli vaziyatlar yaratish	“So’zlovchi devor” metodikasi
	Pedagogik hamkorlik	Hamkorlikda ishlash	
	Sog’lomlashtiruvchi texnologiya	Fiziologik mashqi (ta’lim faoliyatga tayyorgarlik)	“Tabiat” enerjayzer o’yini
Rivojlantiruvchi ta’lim faoliyatining mavzusi maqsadi va	Muammoli ta’lim	Muammoli vaziyat yaratish	“Taymlayn” metodikasi
	Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv	Guruhlarda, kichik guruhlarda, juftlikda ishlash	
	Axborot-kommunikativ	Vizual texnologiyalarni	“Interfaol plakat”

	texnologiyalar	namoyish etish (interfaol doska, elektron doska, taqdimot)	metodikasi
Rivojlantiruvchi ta'lim faoliyati bo'yicha ishlash	Individual va differensial yondashuv	Yakka tartibda, guruhda, juftlikda ishlash	
	Insonparvarlik va shaxsiy	Muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratish	
	Kompetensiyaga asoslangan ta'lim	Juftlik va guruhlarda tadqiqot ishlari	
	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	Ekologiyaga doir yangi materiallar bilan tanishish	
	Rivojlantiruvchi ta'lim	Bolalarda aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish vazifalari: Taqqoslash, tanqidiy fikrlash, tahlil etish, aniqlashtirish, umumlashtirish	
Dam olish daqiqalar	Sog'lomlashtirish texnologiyasi	Gavda harakati, ko'z mashqi, nafas rostlash; raqs harakatlari	"Shamol" enerjayzer o'yini
Mustaqil ish	Individual va differensial yondashuv	Turli xil darajadagi topshiriqlar	
	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	AKT orqali turli darajadagi topshiriqlar berish, test	
Rivojlantiruvchi ta'lim faoliyati yakuni	Pedagogik hamkorlik	Jamoa xulosasi. Tarbiyalanuvchi, juftlik, guruh ishlari xulosasi	
	Insonparvarlik va shaxsiy texnologiya	Muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratish	

Rivojlantiruvchi ta'lim faoliyatlarida zamonaviy texnologiyalar hamda interfaol metodlardan foydalanish bir qator afzallikkarga ega: faoliyat turlarini

hamda ma'lumotni taqdim etish usullarini almashtiradi; tarbiyalanuvchilarda turli xil idrok qilishni faollashtirishga imkoniyat yaratadi; tarbiyalanuvchilarning diqqatini va faolligini oshiradi; faoliyat davomida bolalarda charchoqni kamaytiradi. Shuningdek, rivojlantiruvchi ta'lim faoliyati yanada jonli va qiziqarli bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yosh guruhalarda tashkil etiladigan "Fan va tabiat" rivojlantiruvchi ta'lim faoliyati har bir bolada ma'lum shaxsiy xususiyatlarni rivojlanishi hamda olam haqidagi tasavvurlarni har tomonlama egallashi uchun imkoniyatlar beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quydagи tavsiyalarni berdik.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini bilan zamonaviy texnologiyalardan foydalanib "Fan va tabiat" ta'limiy faoliyatini doimiy innovatsion tashkil etish lozim.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta va tayyorlov guruhalining tarbiyalanuvchilari orasida "Yosh ekolog" liderlarini tayyorlash, ularda ekologik madaniyatning identiv maqsadlarini paydo qilish hamda ularni butun guruh bilan ishlashga o'rgatish zarur.

3. Ekologik tarbiya mazmunini real hayat, atrof-muhitdagi bo'layotgan voqealar hamda tarbiyalanuvchilarining ma'naviy qiziqishlari va kelajakdagi faoliyat sohalari bilan bog'lash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy qilish, o'quv dasturdagi takrorlarni bartaraf etish va ekologik tarbiya berishga tizimli yondashuvni ta'minlash lozim.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ekologik bilim egallashida oila va MTT hamkorlik aloqalarini hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir yosh guruvida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha shart-sharoitlarni tizimli yo'liga qo'yish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ekologik ta'lim-tarbiya berish va ularda atrof-olamga bo'lgan axloqiy munosabatni tarkib toptirish talab etiladi. Ushbu talabni amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Fan va tabiat" ta'limiy faoliyati orqali ekologik bilimlarni tizimli ravishda olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarori.

2. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе, М., 1985.

3. Shin A.V. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Avtoref. ped.fan.dok. - T., 2022., 75 b.

4. Umarova M. X. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi. Ped. fan. diss. ... avtoreferati. - Toshkent, 2009. 27 b 140

5. M.B Kubayeva Implementation of visual-didactic games in ecological education of students of preschool educational organizations current research journal of, 2022

GLOBALLSHUV SHAROITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

**G‘apparov Elyorjon Otabekovich
Namangan davlat universiteti dotsenti v.b., f.f.d.(PhD)**

Annotatsiya: Fanlararo aloqalar va fanlararo integratsiya jarayonlarini amalga oshirish hozirda jahon hamjamiyati tomonidan innovatsion rivojlanishning asosiy sharti sifatida qabul qilinmoqda. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonaiy dunyoning talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, kreativ avlodni tarbiyalash uchun jamiyat sohalarida mazkur islohotlar amalga osirilishi zarur. Maqolada globallshuv sharoitida fanlararo integratsiyani amalga oshirishning muhim jihatlar, innovatsion yechimlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Globallshuv, fanlararo aloqa, fanlararo integratsiya, sivilizatsiya, STEAM.

Аннотация: Осуществление междисциплинарных коммуникаций и междисциплинарных интеграционных процессов в настоящее время принимается мировым сообществом как базовое условие инновационного развития. Необходимо провести данные реформы в сферах общества, чтобы воспитать всесторонне зрелое, творческое поколение, способное отвечать требованиям быстро меняющегося современного мира. В статье научно анализируются важные аспекты и инновационные решения реализации междисциплинарной интеграции в условиях глобализации.

Ключевые слова: Глобализация, междисциплинарная коммуникация, междисциплинарная интеграция, цивилизация, STEAM.

Abstract: The implementation of interdisciplinary communications and interdisciplinary integration processes is currently accepted by the world community as a basic condition for innovative development. It is necessary to carry out these reforms in areas of society in order to educate a comprehensively mature, creative generation capable of meeting the demands of the rapidly changing modern world. The article scientifically analyzes important aspects and innovative solutions for the implementation of interdisciplinary integration in the context of globalization.

Key words: Globalization, interdisciplinary communication, interdisciplinary integration, civilization, STEAM.

Globallashuv jarayoni jamiyat sohalarining barchasiga birdek jiddiy ta’sir ko‘rsatishi bugungi kunda hech birimizga sir emas. Mazkur vaziyat ta’lim tizimiga ham bevosita tegishli bo‘lib, tobora tizimda fanlararo integratsiya jarayonini amalga oshishirishni taqozo qilmoqda. Sivilizatsiyalashgan jamylarda barqaror